

Matbuot xizmati

Suvonov Otayor Murodulloevich

Matbuot kotibi

+998 (66) 234-61-84

+998 (66) 234-61-69

samarqand@uzavtoyul.uz

Samarqad shahar 140017

Nabiev ko'chasi, 3-uy

Samarqand viloyati avtomobil yo'llari hududiy bosh boshqarmasi Matbuot - xizmatining asosiy vazifalari va funksiyalari

- Boshqarmaga nisbatan ijtimoiy fikrning ahvolini hamda mahalliy, respublika va xorijiy ommaviy axborot vositalari munosabatini tahlil qilish va ular to'g'risida Boshqarma rahbariyatini xabardor qilish
- Boshqarma rahbariyati tomonidan belgilanadigan axborot siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda qatnashish;
- Boshqarma faoliyati sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinishini ta'minlash;
- Milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida Boshqarma faoliyatining dolzarb jihatlarini, tegishli sohadagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish masalalarini yoritish;
- Boshqarma rasmiy veb-saytida Boshqarma faoliyatiga daxldor axborot va yangiliklarni maqola, xabar va tahliliy materiallar shaklida yoritib borish, veb-saytdagi axborot resurslarini tashkil etish, ularning samarali faoliyatini ta'minlash;
- Xizmat oldida turgan vazifalarni samarali hal etish uchun zarur bo'lgan axborotlarni Boshqarmaning boshqa bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlikda to'plash va ishlash;
- Ommaviy axborot vositalari uchun xabarlarini (press-relizlar, byulletenlar, sharhlar va shu kabilarni) tayyorlash va tarqatish;
- Boshqarma faoliyatiga doir masalalar bo'yicha bosma materiallarni tayyorlash hamda milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilish, tele- va radio eshittirishlarni tashkil etish, tegishli sohadagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- Boshqarma rahbariyati va xodimlarining ommaviy axborot vositalari vakillari bilan matbuot konferentsiyalari, brifinglari, intervyulari va boshqa uchrashuvlarini tashkil etish;
- Boshqarma faoliyatiga doir masalalar bo'yicha ijtimoiy fikrni hamda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari pozitsiyasini o'rganishga doir tahliliy ishlarni amalga oshirish. Boshqarma rahbariyatiga axborot berish uchun e'lon qilingan dolzarb materiallar sharhlarini tayyorlash;
- Ommaviy axborot vositalari bilan axborot-ma'lumotnoma ishlarini amalga oshirish uchun Boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha tahliliy, statistik va boshqa materiallarning tizimlashtirilgan ma'lumotlar bankini tashkilotish;

- Boshqarma faoliyatini eng to'liq va xolisona yoritish maqsadida milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda jurnalistlar bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshirish;
- Internet tarmog'ida Boshqarmaning veb-saytidagi axborotlarni tashkil etish va uni zamonaviy darajada yoritish.
- Xizmat o'z vakolatlaridagi milliy va xorijiy axborot agentliklari hamda ommaviy axborot vositalarining Boshqarma faoliyati to'g'risidagi materiallarni tayyorlashda ko'maklashish to'g'risidagi buyurtma nomalari va so'rovlarini ko'rib chiqadi.